# Muslim Women in Travel 2019: O‘zbekiston musulmon ayol sayyohlar uchun eng qulay mamlakatlar o‘ntaligidan joy oldi




Singapurda o‘tkazilagan “Halal in Travel Asia” sammitida  musulmon ayollar sayohatiga oid “Muslim Women in Travel 2019” hisoboti e'lon qilindi. “Mastercard” moliya tashkiloti va “CrescentRating” agentligi tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko‘ra, O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida xavfsizlik va diniy bag‘rikenglik bo‘yicha yuqori o‘rinni zabt etgan mamlakatlar o‘ntaligidan joy olgan.




Hisobotga ko‘ra, musulmon ayollar sayohati jahon turizm bozorida eng tez rivojlanayotgan segmentlardan hisoblanadi. Musulmon o‘lkalardagi ayollarning daromadlari oshib borayotgani va ularning ta'lim darajasi

yuqori ekanligi ularni sayohatga chiqishga undamoqda, deyiladi hisobotda. Hisobotda Oʻzbekistonning mazkur yoʻnalishda olib borayotgan ishlari haqida alohida ma'lumotlar taqdim etilgan. Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi raisi v.v.b. Abdulaziz Aqqulovning ta'kidlashicha, ziyorat turizmi Oʻzbekistonda turizmning istiqbolli turlaridan hisoblanadi. Mamlakatga kelayotgan sayyohlar orasida musulmon sayyohlar soni avvalgi yilga qaraganda sezilarli darajada oshgani bilan ajralib turadi.


MASTERCARD-CRESCENTRATING MUSLIM WOMEN IN TRAVEL 2019 INDUSTRY VIEWS

Muslim travelers are becoming a significant segment within Uzbekistan's tourism sector. While the overall number of tourists have grown by 128.5% this year, the number of visitors from Muslim-majority countries rose even more rapidly (172.3%). Uzbekistan's staggeringly rich Islamic architectural heritage is the central point that is attracting Muslim travelers. We have also seen an increase in both group and solo Muslim female visitors to Uzbekistan who are mainly from Southeast Asian countries. The safety and stability of the country are one of the main reasons female travelers prefer to visit Uzbekistan.

To promote Uzbekistan's tourism, we have launched several campaigns in the Southeast Asian media such as TV series like "Muslim Travelers" and "Hijab Traveling" with Indonesian Muslim Female influencers. We are going to continue to invite Muslim female influencers to promote. In addition, we plan to organize cultural festivals and events such as Ramadan Bazaars, Modest-fashion and Halal lifestyle shows to attract more Muslim women travelers.

**Mr. Abdulaziz Akkulov**
Chairman of the State Committee of the Republic of Uzbekistan for Tourism Development.



Oʻzbekiston musulmon ayol sayyohlarni mamlakatga jalb qilish boʻyicha qator ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, indoneziyalik musulmon ayol inflyuenserlar ishtirokida “Muslim Travelers” va “Hijab Traveling” telekoʻrsatuvlari namoyish etilgan. “Biz, musulmon ayol sayyohlarni yanada koʻproq jalb qilish maqsadida turli tadbirlar, jumladan, “Ramazon bozori”, liboslar koʻrgazmasi va halol-turizmga oid festivallarni oʻtkazishni rejalashtirmoqdamiz” – deyiladi intervyuda.

***Manba***